

**XXI АСРДА БИОЛОГИЯНИНГ РИВОЖЛАНИШ  
ИСТИҚБОЛЛАРИ ВА УЛАРДА  
ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ**



**ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ БИОЛОГИИ  
В XXI ВЕКЕ И ЗНАЧЕНИЕ В НИХ  
ИННОВАЦИЙ**



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**АБДУЛЛА ҚОДИРИЙ НОМИДАГИ  
ЖИЗЗАХ ДАВЛАТ ПЕДАГОГИКА ИНСТИТУТИ**

**XXI АСРДА БИОЛОГИЯНИНГ РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ  
ВА УЛАРДА ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ**

**Биология ва уни ўқитиши методикаси кафедраси профессори Хударган  
Мавлонов таваллудининг 75 йиллигига бағишланган**

**Республика илмий анжумани материаллари  
(2021 йил 15 апрель)**

**ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ БИОЛОГИИ В XXI ВЕКЕ И  
ЗНАЧЕНИЕ В НИХ ИННОВАЦИЙ  
МАТЕРИАЛЫ**

**Республиканская конференция, посвящённая к 75-летию профессора  
кафедры биологии и методики её преподавания Хударгана Мавлонова  
(15 апреля 2021 года)**

**Жиззах-2021**

**УДК: 581.5 (09)**

**ББК: 28.58 Г**

**Э-59**

**“XXI асрда Биологиянинг ривожланиш истиқболлари ва уларда инновацияларнинг аҳамияти” мавзусидаги республика илмий анжумани материаллари**

Жиззах 2021. – 498 бет.

**Таҳрир ҳайъати:**, проф. п.ф.д. Ш.С.Шарипов, таҳрир ҳайъати раиси

б.ф.н. доц. Қодиров F., таҳрир ҳайъати ўринбосари

проф., б.ф.д. Раҳмонқулов У.

доц., б.ф.д. (PhD) Азимова Д.Э.

б.ф.д. (PhD). Авалбоев О.Н.

б.ф.д. (PhD). Абдуллаева Н.С.

б.ф.д.(PhD). Ҳамраева Н.Т.

Усанов У.Н.

**Тўплам редакторлари:** б.ф.д.(PhD)., доц. Азимова Д.Э., б.ф.д.(PhD).

Авалбоев О.Н., б.ф.д.(PhD). Ҳамраева Н.Т.

*Уибу тўплам Жиззах давлат педагогика институтида 2021 йил 15 апрелда бўлиб ўтган Республика илмий анжумани материалларидан иборат.*

Уларда flora, систематика ва юксак ўсимликлар географияси, биологикхилма-хилликни ўрганиши ҳамда ноёб, ўқолиб бораётган ўсимлик ва ҳайвон турларининг муҳофазаси, ўсимликлар қоплами, ресурсларини ўрганиши, структуравий ботаника, экология, интродукция, сув ва қуруқлик ценозлари ҳайвонларни ўрганиши, паразитлар ва энтомокомлекслари шакллантирувчи, ҳаракатлартирувчи тадқиқотларнинг замонавий муаммолари бўйича олиб борилган тадқиқотларнинг натижалари келтирилган.

Мақолалар тўплами илмий ҳодимлар, қишлоқ хўжалиги ва сув хўжалиги мутахасислар, олий ва ўрта маҳсус ўқув юртлари ўқитувчи, талабалари ҳамда тадқиқотчилар учун мўлжалланган.

**Мазкур тўплам Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта маҳсус таълими вазирлигининг 2021 йил 2 мартағи 78-Ф-сонли фармойиши асосида нашрга тавсия этилган.**

## **TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

**Ergasheva N.E., Omonjo'lov O.A.-  
Jizzax viloyat XTXQTMO hududiy markazi  
Jizzax viloyati Paxtakor tumani 13-umumiyl o'rta ta'lif maktabi**

Bugungi kunda o'quvchilar radio, televizor, gazeta-jurnallar, kompyuter, internet tarmog'i, turli muloqotlar orqali ko'plab axborot oladilar. Shu sabab ular fikrlash borasida hatto o'zlariga bilim beruvchi ba'zi o'qituvchilardan ham ilgarilab ketishi mumkin. Bu hol esa o'qituvchidan izlanuvchanlik va ijodkorlikni talab etadi.

Darslarni innovatsion texnologiyalar asosida tashkil qilish o'quvchilarni ko'proq erkin fikrlashga o'rgatishga da'vat etadi. Innovatsion texnologiyalar asosida dars o'tish o'quvchilarda fanga nisbatan qiziqish uyg'otadi va ularning faolligini oshiradi. Natijada o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi ortadi. Innovatsion texnologiyalar asosida o'qitishning mohiyati o'quv jarayonining tashkil etilishi bilan bog'liq bo'lib, bunda amalda barcha o'quvchilar bilish jarayoniga jalb etilgan bo'ladilar, ular o'zları bilgan va o'ylagan narsalar xususida tushunish va refleksiyalash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Materiallarni o'zlashtirish har bir shaxsning alohida o'ziga xos bilimlar, g'oyalar, faoliyat usullari bilan almashinib borayotganini anglatadi. Shu bilan birga o'zaro bir-birini qo'llab-quvvatlash ochiq ko'ngillik muhitida bo'lib o'tadi, bu esa birgina yangi bilimlarni olishga emas, balki bilib olish faoliyatining rivoj topishiga, bu jarayonda hamkorlik qilishning yanada yuqoriyoq shakllarga o'tkazilishiga imkon beradi.

Mashg'ulotlardagi interfaol faoliyat quyidagi 5 asosiy elementlarda yig'iladi: pozitiv o'zaro qaramlik, shaxsiy mas'uliyat, ko'mak beruvchi o'zaro hamjihatlikda harakat qilish, birgalikda ishslash va guruhlarda ishslash ko'nikmalar bilan bog'liq bo'ladi. Buning uchun mashg'ulotlarda yakka tartibda juft-juft bo'lib va guruh bo'lib ishslash tashkil qilinadi, tadqiqot loyihalari asosida rollar taqsimlangan o'yinlar qo'llaniladi, hujjatlar va turli-tuman informatsiyalar manbalari bilan ishlar olib boriladi, ijodiy ishlar qo'llanadi.


Fikrlashga majburlash (aqliy hujum), mashg'ulot mazmunini kichik guruhlarda tahlil qilish, o'yin vositasida ta'lif berish, natijalarni tadqiq qilish, kuzatuv, guruhlarda ishslash, bahs, ish qog'ozlaridan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish va shu kabilar dars samaradorligiga erishish omili bo'lishi muqarrar.

"Kichik guruhlarda ishslash", "Miya jangi", "Kim oshdi savdosи", "Reklama", "Rolli o'yinlar", "Munozaralar" kabi interfaol o'qitish usullaridan foydalanib o'tkazilgan darslarda o'quvchilar tomonidan avvalgi mashg'ulotlarda yoki hayot tajribalarida o'zlashtirilgan birlamchi bilimlar va tasavvurlar asosida umumiyl muammolar muhokama qilinadi va bunday mashg'ulotlar yuqori samara beradi.

Boshlang'ich sinf darslarida interfaol mashg'ulotlarni o'tkazishdan asosiy maqsad bolalarda mustaqil fikrlash, to'g'ri so'zlash, jonivorlar, narsa-buyumlarni to'g'ri nomlash, sanoq va miqdorni, katta va kichikni taqqoslash va farqlash, ular orasidagi o'zaro o'xshashlik va farqni ko'ra bilish, ularning lug'aviy ma'nolarini sharplash kabi nutqiy-tafakkuriy ko'nikmalarni, ravon og'zaki nutqni hosil qilishdan iborat. Bu esa bolani intellektual rivojlanishga yo'naltiradi, hozirjavoblik, jadal fikrlashga odatlantiradi.


Bunday ijodiy ishlar o‘qituvchidan, o‘z ish faoliyatini qiziqarli topishmoqlar, o‘ylash va izlanishga yo‘naltiruvchi lingvovidaktik va lingvopsixologik topshiriqlar bilan to‘yintirish, lozim bo‘lsa, shunday yangi texnologiyalarni o‘rganish va o‘z mashg‘ulotlarida qo‘llashni taqozo etadi. Kichik maktab yoshidagi bolalarning aqliy taraqqiyotini jadallashtirish, mustaqil faoliyatga yo‘naltirishda tafakkur, idrok va xotirani rivojlantirish, nutqiy ko‘nikmalarni mustahkamlash mashg‘ulotlari alohida ahamiyat kasb etadi. Sinfda va sinfdan tashqari dars-mashg‘ulotlari ushbu metodda tashkil etilganda o‘quvchilar erkin fikrlaydi, munozara-bahs yuritadi. Albatta, darsni bunday usulda tashkil etish oson kechmaydi. Bunda o‘qituvchining tashkilotchiligi, chuqur bilimi, ziyrakligi, nazokat va muloqotga kirishuvchanligi hamda boshqa xususiyatlari qo‘l keladi.

“Ur to’qmoq” ertagini o‘rganishda qahramonlar fe’l-atvorini tahlil qilishda “Tarmoqlash” usulidan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar berib o‘tamiz:



Bu usul orqali o‘quvchilar ertak qahramonlaridan qaysilari yaxshi xususiyatlarga, qaysilari yomon xususiyatlarga ega ekanligini bilib oladilar.

“Oltin tarvuz” ertagidagi salbiy va ijobiy qahramonlarning xatti-harakatlaridan kelib chiqqan natijalarni ko‘rish uchun “Klaster” usulidan foydalanish maqsadga muvofiq:



Bunday metodlardan foydalanish orqali o‘quvchilar yaxshilikning har doim taqdirlanishi va yomonlikning esa jazolanganligini yaqqol ko‘rib olishlari mumkin.

Shunday qilib, bolaning ongi va tafakkuri endi shakllanib kelayotgan boshlang‘ich sinflarda o‘qituvchining mahorati, uning innovatsion texnologiyalarni ta’lim jarayoniga mohirona tadbiq eta olishi, ta’limning yangi-yangi yo‘l va usullarini izlashi, ilg‘or pedagogik tajribalardan ijobiy foydalana olishi juda muhimdir.

Shuning uchun ham zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish, ta’lim samaradorligini oshirish uchun tinimsiz izlanish bugungi kunning ehtiyojiga aylandi.

O‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishda, ongini o‘sirishda, dunyoqarashini shakllantirishda, nutqni boyitishda bilimga ishtiyoq va qiziqishini oshirishda, xillas ta’lim samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalar asosida darslarni tashkil etish muhim rol o‘ynaydi.

Shuni ta’kidlash lozimki, ta’lim tizimini kadrlar tayyorlashni yangilash vazifalarini bajarish mavjud o‘qitish usullarini ta’lim texnologiyalari asosida qayta tashkil etish, sinfda, darsda, darsdan tashqarida, o‘quv-tarbiyaishlarini bajarishda, o‘qish darslarini tashkil etishda pedagogikjarayonning natijasini kafolatlaydigan qilib darsni loyihalashva tashkil etish bugunning dolzarb mavzulardan biri ekanligini belgilaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.R.J.Ishmuhamedov, M.A.Yuldashev. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent. 2017 yil

2.T G‘afforova. Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy texnologiyalar. Qarshi: Nasaf, 2009 yil

16	N.S. Abdullayeva, D.A. Agzamova, A.B. Isomova. OLTIHOVUZ QISHLOG'I ATROFI FLORASINI O'RGANISH.....	46
17	Н.С. Абдуллаева, Н.Ў. Алиева, А.Ҳ. Мадаминова. ЖИЗЗАХ ШАХАР МАНЗАРАЛИ ЎСИМЛИКЛАРНИ ЎРГАНИШ.....	50
18	Н.Т.Хамраева, Г.С. Бердиёрова. ТИКОНЛИ КОВУЛ ЎСИМЛИГИ МЕВАСИДАН КОНСЕРВА МАҲСУЛОТЛАРИ ТАЙЁРЛАШ ТЕХНОЛОГИЯСИ ВА УНИНГ АҲАМИЯТИ.....	55
19	M.A. Рахимова, T.A. Жўлбоев. FAN-TEXNIKA RIVOJLANGAN HOZIRGI ZAMONNING MUHIM EKOLOGIK VAZIFALARI.....	57
20	Н.С. Абдуллаева, З.И. Абдужалилова. ЗОМИН МИЛЛИЙ ТАБИАТ БОГИ ЎСИМЛИКЛАР ДУНЁСИНИ ИНВЕНТАРИЗАЦИЯСИ.....	59
21	G.D. Soliyeva, S.A. Jalolova. DORIVOR O'SIMLIKLARNI YETISHTIRISH VA QAYTA ISHLASH, ULARNING URUG'CHILIGINI YO'LGA QO'YISHNI RIVOJLANTIRISH.....	61
22	Ишанқулова Д.У, Қўзиева С.Ў. ШАҲАРЛАРНИ КЎКАЛАМЗОРЛАШТИРИШДА МАНЗАРАЛИ ЎСИМЛИКЛАРНИНГ ЎРНИ.....	64
23	J.A. Jumanov, F.B. Abduxoliquov, N.A. Ergasheva SIRDARYO VILOYATI SHO'RLANGAN TUPROQLARIDA O'SIMLIKLARNI BARGI ORQALI OZIQLANTIRISHNING SAMARALI USULLARI.....	66
24	Matmuratova G.B, Norqulova F.A. FITONEMATODALARNING O'SIMLIKLARDA PARAZITLIK QILISHI VA ZARARI.....	69
25	Х. Умурзакова, Ё. Қаюмова. ФАРГОНА ВОДИЙСИ ШАРОИТИДА АНОР БУТАСИНИНГ МУҲИМ ЗАРАРКУНАНДАЛАРИНИНГ ЎЗИГА ҲОСБИОЭКОЛОГИК ҲУСУСИЯТЛАРИ.....	71

## **2-SHO'BA. TA'LIM - TARBIYA JARAYONIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

26	Jabbarova Z. O., Mustafoyeva N. A. TALIM JARAYONIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.....	74
27	Aberqulov E.A., Barliboeva D. PEDAGOGIK INNOVATSIYALARINI HAYOTGA TATBIQ ETISHNING TASHKILIY ASOSLARI.....	76
28	Soliyeva G.D., Qo'ziyeva Yu.A., Xalilov J.E. BIOLOGIK TA'LIMNI INTENTSIVLASHTIRISH VA AKTIV MUSTAQIL IJODIY TAFAKKURNI TARKIB TOPTIRISH.....	79
29	Ikromova Yu.E., Bahronova A.F. AN'ANAVIY DARS SHAKLLARINI PEDAGOGIK VA AXBOROT TA'LIM TEXNOLOGIYALAROI BILAN UYG'UNLASHTIRISH.....	83
30	Мирзоева М.А., Хайитбоева М.Б. ЦИФРОВИЗАЦИЯ – РАЗВИТИЯ.....	85
31	Esonqulova D.S., Samadova S.J. PEDAGOGIK INNOVATSIYALARINI HAYOTGA TATBIQ ETISHNING TASHKILIY ASOSLARI.....	87
32	Ergasheva N.E., Omonjo'lov O.A. TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.....	91
33	Xolmo'minova B, Turonova G. BOSHLANG'ICH SINF "ATROFIMIZDAGI	